



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 7 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 7

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 7



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№7 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-7>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'affor

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yosuke Shamoto

yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

Umarxanova Dildora Sharipxanovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Nematov Jo'rabek Nematilloevich

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Xusanov Ozod Tillabayevich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Selimanova Svetlana Mixaylovna

yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Peshkova Xristina Vyacheslavovna

yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

Sung Un Lee

yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ҲУҚУҚРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ruziyev Rustam Jabborovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Borotov Mirodiljon Xomudjonovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Shomuxamedova Zamira Shoislamovna

yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

Ahmad Issa Altweissi

yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

Mexmonov Kambariddin Miradxanovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ҲУҚУҚРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.

Kanton Federal sud markazi (AQSH)

Borut Strazisar

Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Gasanov Mixail Yuriyevich

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Sattorova Gulnoza Djurakulovna

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Denisov Gleb

yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirazov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Sayfullayeva Mahbuba Azim qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INGLIZ HUQUQINI JORIY ETISH VA QO'LLASHNING SHARTLARI VA ISTIQBOLLARI.....	5
2. Мамадалиев Бахтиёр Зокирович	
ЎРМОН ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДА ҚОНУНЧИЛИК ИЖРОСИ УСТИДАН ПРОКУРОР НАЗОРАТИНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ ВА УЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ.....	13
3. Ummatov Muhammadrasul Tursunovich	
JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SUBYEKTLARI ORASIDA JAVOBGARLIKNI SOHA, HUDUD VA YO'NALISHLAR BO'YICHA BIRIKTIRISH VA AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI.....	21
4. Axatov Shuxrat Shoim o'g'li	
SUN'IY INTELLEKTDAN JINOYAT SODIR ETISH VOSITASI SIFATIDA FOYDALANISHNING JINOIY-HUQUQIY MUAMMOLARI.....	30
5. Bozorov Jasurbek Saydulla o'g'li	
SHAXSIY HAYOT DAXLSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI KIBER-TA'QIB (CYBERSTALKING)NING JINOYAT-HUQUQIY TABIATI: MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR VA XORIJIY TAJRIBANING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI.....	36
6. Ismoilov Shoxabbos G'ayratjon o'g'li	
JINOYAT TARKIBINING OBYEKTIV VA SUBYEKTIV BELGILARIGA KO'RA NORMALAR RAQOBATINING HUQUQIY TAHLILI.....	47
7. Матмуратов Батир Джолдасович	
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ ЯНГИ ЖИНОЯТ КОДЕКСИГА ЖАРИМА ЖАЗОСИНИ АСОСИЙ ЖАЗОГА ҚЎШИМЧА ҚИЛИБ КИРИТИШ ВА УНИ КОРРУПЦИЯ ЖИНОЯТЛАРИГА КЕНГ ЖОРИЙ ЭТИШ ЗАРУРАТИ.....	58
8. Noraliyev Turg'un Eshmurod o'g'li	
TEKNOLOGIK TARAQQIYOT SHAROITIDA JINOYAT PREDMETINING EVOLYUTSIYASI: SUN'IY INTELLEKT, KRIPTO-AKTIVLAR, VIRTUAL MULK VA AXBOROT JINOIY TAJOVUZ OBYEKTI SIFATIDA.....	66
9. Утаев Хусниддин Хуррамович	
РАҚАМЛИ МУЛКИЙ ҚИЛМИШЛАРНИ ТУРДОШ ЖИНОЯТ ТАРКИБЛАРИДАН ФАРҚЛАШНИНГ ЖИНОЯТ-ҲУҚУҚИЙ МОДЕЛИ.....	77
10. Махмадиярова Хумора Ўктам кизи	
БИРИНЧИ ИНСТАНЦИЯ СУДЛАРИДА ИШ ЮРИТИШДА ТОРТИШУВ ПРИНЦИПИНИНГ АҲАМИЯТИНИ КУЧАЙТИРИШ.....	85
11. Архангельская Екатерина Константиновна	
«ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЙ В ОТНОШЕНИИ ИНОСТРАНЦЕВ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ДИСТАНЦИОННЫЙ ОПРОС С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ».....	84
12. Sattarov Ja'surbek Avazbekovich	
AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIKKA QARSHI PROFILAKTIKANING YANGI MODELI: MAHALLABAY YONDASHUV, ANTIFROD MEKANIZMLAR VA VIKTIMOLOGIK HIMOYA ISTIQBOLLARI.....	103



Ummatov Muhammadrasul Tursunovich,

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti

Maxsus-kasbiy fanlar kafedrasasi professori,

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori(PhD), professor

E-mail: ummatovmuhammadrasul@gmail.com

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH SUBYEKTLARI ORASIDA JAVOBGARLIKNI SOHA, HUDUD VA YO'NALISHLAR BO'YICHA BIRIKTIRISH VA AMALGA OSHIRISH MUAMMOLARI

For citation: Ummatov Mukhammadrasul Tursunovich. ISSUES REGARDING THE ASSIGNMENT AND IMPLEMENTATION OF RESPONSIBILITIES AMONG PUBLIC SAFETY ENTITIES BASED ON SECTOR, TERRITORY, AND FUNCTIONAL AREAS. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 7.



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.22235385>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlash subyektlari orasida javobgarlikni soha, hudud va yo'nalishlar bo'yicha biriktirish hamda amalga oshirishning dolzarb muammolari tahlil qilingan. Muallif jamoat xavfsizligi tizimida faoliyat yurituvchi davlat organlari va boshqa subyektlar vakolatlari chegarasining aniq belgilanmaganligi, vazifalarning takrorlanishi yoki, aksincha, ayrim sohalarda javobgarlikning umuman biriktirilmaganligi kabi masalalarni o'rgangan. Hududiy tamoyil asosida javobgarlikni taqsimlashdagi muvofiqlashtirish muammolari, shuningdek turli yo'nalishlar (profilaktika, nazorat, reagirovanie va h.k.) bo'yicha funksional vakolatlarning takomillashmaganligi ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot davomida qiyosiy-huquqiy, tizimli-tahliliy va mantiqiy usullardan foydalanilgan. Jamoat xavfsizligini ta'minlash subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jamoat xavfsizligi, subyektlar vakolati, javobgarlikni biriktirish, hududiy tamoyil, sohaviy yo'nalish, muvofiqlashtirish, huquqni muhofaza qilish organlari, jamoat tartibini ta'minlash, vakolatlarni chegarasi, profilaktika faoliyati.

Умматов Мухаммадрасул Турсунович,

Профессор кафедры специальных профессиональных дисциплин

Института повышения квалификации Министерства

внутренних дел Республики Узбекистан,

доктор философии по юридическим наукам (PhD), профессор.

E-mail: ummatovmuhammadrasul@gmail.com

ВОПРОСЫ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ И РЕАЛИЗАЦИИ ОБЯЗАННОСТЕЙ МЕЖДУ ОРГАНАМИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ С УЧЕТОМ ОТРАСЛЕВОГО, ТЕРРИТОРИАЛЬНОГО И ФУНКЦИОНАЛЬНОГО АСПЕКТОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются актуальные проблемы распределения и реализации ответственности между субъектами обеспечения общественной безопасности по сферам, территориям и направлениям деятельности. Автором рассмотрены такие вопросы, как отсутствие чётких границ полномочий государственных органов и иных субъектов, действующих в системе общественной безопасности, дублирование функций либо, напротив, отсутствие закрепления ответственности за отдельными направлениями. Показаны проблемы координации при распределении ответственности по территориальному принципу, а также недостаточная разработанность функциональных полномочий по различным направлениям (профилактика, контроль, реагирование и др.). В ходе исследования применены сравнительно-правовой, системно-аналитический и логический методы. По итогам исследования сформулированы научно обоснованные предложения и рекомендации, направленные на совершенствование координации деятельности субъектов обеспечения общественной безопасности.

Ключевые слова: общественная безопасность, полномочия субъектов, распределение ответственности, территориальный принцип, отраслевое направление, координация, правоохранительные органы, обеспечение общественного порядка, границы компетенции, профилактическая деятельность.

Ummatov Mukhammadrasul Tursunovich,

Professor of the Department of Special Professional Disciplines
of the Institute for Advanced Studies of the Ministry of Internal Affairs
of the Republic of Uzbekistan, doctor of philosophy on sciences in law (PhD), professor

E-mail: ummatovmuhammadrasul@gmail.com

ISSUES REGARDING THE ASSIGNMENT AND IMPLEMENTATION OF RESPONSIBILITIES AMONG PUBLIC SAFETY ENTITIES BASED ON SECTOR, TERRITORY, AND FUNCTIONAL AREAS

ANNOTATION

This article examines current problems related to the allocation and implementation of responsibility among the subjects of public safety by sphere, territory, and areas of activity. The author explores issues such as the lack of clearly defined boundaries of authority among state bodies and other entities operating within the public safety system, the duplication of functions, or, conversely, the absence of assigned responsibility in certain areas. The study highlights coordination problems in the territorial distribution of responsibility, as well as the insufficient development of functional powers across different areas of activity (prevention, control, response, etc.). Comparative-legal, systemic-analytical, and logical methods were applied in the course of the research. Based on the findings, scientifically grounded proposals and recommendations are formulated aimed at improving the coordination of activities among public safety subjects.

Keywords: public safety, powers of subjects, allocation of responsibility, territorial principle, sectoral direction, coordination, law enforcement bodies, maintenance of public order, boundaries of competence, preventive activity.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida turli darajadagi davlat organlari, mahalliy boshqaruv tuzilmalari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda nodavlat subyektlar faoliyat yuritadi. Ular orasida javobgarlikni aniq taqsimlash, soha, hudud va yo'nalishlar bo'yicha vakolatlar hamda vazifalarni bir-biriga uyg'un holda birlashtirish masalasi jamoat xavfsizligini ta'minlashning samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi sharoitda jamoat xavfsizligini ta'minlashning yagona tizimi, yagona huquqiy va institutsional mexanizmlarini shakllantirish jarayoni ketmoqda, biroq subyektlar o'rtasida funksiyalar takrorlanishi, vakolatlar chegarasining aniq emasligi, hamkorlik va muvofiqlashtirishning yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Shu bois javobgarlikni soha

(ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va h.k.), hudud (respublika, viloyat, tuman, mahalla) va yo‘nalishlar (profilaktika, monitoring, favqulodda holatlarga tayyorgarlik, jinoyatchilikka qarshi kurash va boshqalar) bo‘yicha aniq belgilash zarurati yuzaga kelmoqda.

Jamoat xavfsizligini ta‘minlash subyektlari o‘rtasida javobgarlikni to‘g‘ri taqsimlashda qonunchilikdagi bo‘shliqlar, tushunchalar va kategoriyalar aniq ta‘riflanmagani, vakolatlar o‘zaro kelishilmagani, amaliy hamkorlik mexanizmlarining yetarlicha ishlamasligi asosiy to‘siqlardan biridir. Shu bilan birga, markaziy va mahalliy organlar, davlat va nodavlat subyektlar o‘rtasidagi mas‘uliyat chegarasini belgilash, jamoat xavfsizligini ta‘minlashda birgalikdagi harakatlar tizimini takomillashtirish masalasi ham o‘ta dolzarb hisoblanadi. Shu sababli institutsional tuzilishi hamda subyektlarning funksional yo‘nalishidan kelib chiqib, jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimining hozirgi bosqichdagi eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan javobgarlikni soha, hudud va yo‘nalishlar bo‘yicha aniq biriktirish hamda samarali amalga oshirish masalalari tadqiq etiladi. Ushbu masala nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, uning hal qilinishi ko‘p subyektki tizimning real samaradorligini belgilaydi va “kim nimaga javobgar” savoliga aniq javob bo‘lmaguncha, funksiya va vazifalar takrorlanishi, ulardagi “chegaraviy bo‘shliqlar” hamda javobgarlikni boshqa subyektlarga o‘tkazish hollari muqarrar ravishda yuzaga keladi.

Tadqiqot metodologik jihatdan Yu.A.Tixomirovning vakolat nazariyasi hamda matritsaviy tahlil usuliga asoslanadi. Yu.Tixomirovning yondashuviga ko‘ra, har bir davlat organining vakolati to‘rt elementdan tashkil topgan: (a) predmetli kompetensiya (nima bo‘yicha); (b) funksional kompetensiya (nima qiladi); (v) hududiy kompetensiya (qaerda); (g) vaqt kompetensiyasi (qachon) [1]. Bu to‘rtlik har bir sub‘ektning roli va majburiyatlarini aniq ifodalash imkonini beradi. Mazkur nazariy asosdan kelib chiqib, quyida jamoat xavfsizligi sub‘ektlari o‘rtasidagi javobgarlik taqsimotini uchta asosiy o‘q - **sohaviy (predmetli), hududiy va funksional-yo‘nalishli** - kesimida tahlil etamiz.

Birinchi yunalish - javobgarlikni soha bo‘yicha biriktirishning hozirgi holati va muammolari. 2021-yilgi Konsepsiyaning 5-bandi [2] jamoat xavfsizligini ta‘minlovchi 10 ta sub‘ektni sanab o‘tgan bo‘lsa-da, har bir subyektning sohaviy javobgarlik chegarasi yetarli darajada aniq belgilanmagan. O‘tkazilgan tahlil javobgarlik taqsimotining quyidagi sohalarida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

1-jadval. Jamoat xavfsizligi sohasida javobgarlikni predmet (soha) bo‘yicha biriktirilishi

Soha (predmet)	Asosiy javobgar subyekt	Birgalikda javobgar (takrorlanish xavfi)
Jamoat tartibini saqlash	IIV (Jamoat xavfsizligi departamenti)	Milliy gvardiya - ommaviy tadbirlarda
Huquqbuzarliklar profilaktikasi	IIV (profilaktika inspektorlari)	Bosh prokuratura, Mahallalar uyushmasi, FO‘O‘BO - parallel funksiyalar
Yo‘l harakati xavfsizligi	IIV JXD YHXX	Transport vazirligi, mahalliy hokimliklar - infratuzilma
Favqulodda vaziyatlar	FVV	IIV, mahalliy hokimliklar - qutqaruv operatsiyalari
Terrorizmga qarshi kurash	DXX	IIV, Milliy gvardiya - huquqbuzarliklar darajasida
Ekstremizmga qarshi kurash	DXX	IIV, Mahallalar uyushmasi - ijtimoiy profilaktika
Kiber- va raqamli xavfsizlik	ATKRV, DXX	IIV (kiberjinoyatlar), Davlat soliq xizmati (raqamli soliq tizimi)

Soha (predmet)	Asosiy javobgar subyekt	Birgalikda javobgar (takrorlanish xavfi)
Narkotik moddalarga qarshi kurash	IIV, Ichki ishlar boshqarmasi	Sog'liqni saqlash vazirligi, Bojxona, DXX
Sanitariya-epidemiologik xavfsizlik	Sog'liqni saqlash vazirligi	IIV (karantin), FVV (favqulodda rejim)
Ijtimoiy profilaktika (mahalla)	Mahallalar uyushmasi	IIV (profilaktika inspektori), FO'O'BO, hokimliklar

Tahlil natijasi ko'rsatishicha, o'nta asosiy sohaning hech biri yakka subyektning mutlaq javobgarligida emas. Har bir sohada kamida 2–3 ta subyektning vakolati bir-birini qoplashi kuzatiladi. Bu hol funksiyalar takrorlanishi yoki mas'uliyat darajasi pasayib ketishini vujudga keltiradi, bu pirovardida “hech kim javobgar emas” holati yoki vaziyatiga olib kelishi mumkin. O‘.M. Atajanov o‘z tadqiqotida ta’kidlaganidek, “sohaviy qonunchilik parokandaligi” - bu hol huquqiy tartibga solishning tizimli muammosi hisoblanadi[3].

Masalan, IIV va Milliy gvardiya vakolatlarining takrorlanishini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi holat namoyon bo'ladi. 2016-yil 16-sentyabrdagi “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi Qonunning 9-moddasi[4] IIV zimmasiga “...jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash” vazifasini yuklaydi. Ayni paytda 2020 yil 18 noyabrdagi “Milliy gvardiya to'g'risida”gi Qonunning 3-moddasi[5] ham Milliy gvardiyaga xuddi shu funksiyalarni belgilaydi: “...jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklarni profilaktika qilish”. Ushbu normalarda bir xil talqin etilishi gorizontol takrorlanishning yorqin misolidir. M.Sh.Muxammadinov tahlilida qayd etilishicha, amalda IIV “kundalik” jamoat tartibini, Milliy gvardiya esa asosan “ommaviy tadbirlarda” tartibni ta'minlaydi, biroq bunday ajratish qonunda mustahkamlanmagan, u faqat amaliy odatga asoslanadi[6].

Ikkinchi muammo - javobgarlik hududlarini birlashtirishda namoyon bo'ladi. Jamoat xavfsizligi tizimining hududiy tashkil etilishi “respublika - viloyat - tuman (shahar) – mahalla” to'rt pog'onali modelga asoslangan. Har bir pog'onada turli subyektlarning hududiy bo'linmalari faoliyat yuritadi, bu hol vertikal va gorizontol hamkorlik zaruratini belgilaydi. Tahlil quyidagi tendensiyalarni ochib berilishiga xizmat qildi.

2-jadval. Hududiy pog'onalar bo'yicha javobgarlik taqsimoti va muammoli jihatlar

Hududiy pog'ona	Asosiy javobgar	Muammoli jihat
Respublika	Vazirlar Mahkamasi, IIV, DXX, Milliy gvardiya, FVV	Strategik muvofiqlashtiruvchi yagona organ yo'qligi
Viloyat / QR	IIBB, hokim, viloyat prokurori, viloyat FVB boshlig'i	Hokim - IIB boshlig'i o'rtasidagi subordinatsiya aniq emas
Tuman (shahar)	IIB boshlig'i, tuman hokimi, tuman prokurori	Tuman darajasida 3 ta parallel “boshqaruv liniyasi”
Mahalla	Mahalla huquq-tartibot maskani, profilaktika inspektori, mahalla raisi, hokim yordamchisi	Birinchi bo'g'inda suyektlar ko'pligi va vakolat qaytalanishi

Ayniqsa diqqatga sazovori bu mahalla darajasidagi javobgarlik masalalarining to'liq yechimi topilmaganligidir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 1-dekabrdagi “Jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi Hukumat qarorlarini tizimlashtirish to'g'risida”gi 754-son qarori[7] va 2025-yilgi

PQ-1-son Qaror[8] bilan joriy etilgan “mahalla yettiligi” formatida - profilaktika inspektori, mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim va soliq inspektori birgalikda faoliyat yuritadi. Har birining o‘z idorasi, hisobot liniyasi va maxsus funksiyasi mavjud. Ilmiy tadqiqotchilar tomonidan aniqlanishicha, bu holat ayrim vaziyatlarda “birgalikdagi javobgarlik - hech kimning javobgarligi” paradoksiga aylanishi mumkin[9]. Ayrim holatlarda profilaktika inspektori va mahalla raisi o‘rtasida vazifalar takrorlanishi, ayrim holatlarda esa - muhim holatlarda hech biri mas’uliyatni zimmasiga olmaslik hollari qayd etilmoqda[10].

Shu bilan bir qatorda vertikal bo‘ysunish-boshqaruv bog‘lanishda ham muammolar mavjud. Jumladan, “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 13-moddasiga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston IIV va viloyat IIBB boshliqlari har chorakda tegishli Kengashlarga hisobot taqdim etishadi. Biroq bu hisobdorlik aylanma, ya’ni IIO xodimining bir vaqtning o‘zida ham IIV rahbariyatiga (vertikal), ham mahalliy hokimlikka va deputatlar Kengashiga (gorizontal) javobgar bo‘lishi, amaliy faoliyatda subordinatsion ziddiyatlarni yuzaga keltiradi. S.B. Hakimov ta’kidlashicha, bu ziddiyatlar hal etilmaguncha, ichki ishlar organlari boshqaruv tizimining samaradorligi cheklanib qoladi[11].

Keyingisi sifatida funksional-yo‘nalishli javobgarlikni biriktirish muammolarni ko‘rsatish mumkin. Jamoat xavfsizligini ta’minlash funksional jihatdan to‘rt darajali zanjirli jarayon sifatida tashkil etiladi: (I) profilaktika → (II) aniqlash (monitoring) → (III) javob chorasini (reaksiya) → (IV) oqibatlarni bartaraf etish. Har bir bosqichda yakuniy mas’uliyatga ega bo‘lgan sub’ektning aniq belgilanishi muhim.

3-jadval. Funksional zanjir bo‘yicha javobgarlik biriktirishning tizimli muammolari

Funksional bosqich	Asosiy javobgar subyekt	Tizimli muammo
I. Profilaktika	IIV (profilaktika inspektori), mahalla yettiligi, Mahallalar uyushmasi	Majburiy KPI yo‘qligi, natija o‘lchash tizimining mavjud emasligi
II. Aniqlash / monitoring	IIV, DXX, Raqamli texnologiyalar vazirligi («Xavfsiz shahar»)	Axborot tizimlari integratsiyasining to‘liq emasligi
III. Reaksiya / huquqiy chora	IIV, Milliy gvardiya, prokuratura, sudlar	Birinchi navbatda kim va qaysi tartibda chora qo‘llashi nomuayyanligi
IV. Oqibatlarni bartaraf etish	FVV, Sog‘liqni saqlash vazirligi, mahalliy hokimliklar	Jabrlanganlarga yordam berish va rehabilitatsiya sohasida javobgarlik tarqoqligi

Funksional zanjirdagi eng asosiy muammo bosqichlar o‘rtasidagi o‘tkazish (mas’ul organga yetkazish) tartibining huquqiy tartibga solinmaganligi. Masalan, profilaktika inspektori “xavfni aniqladi” - lekin ushbu signal qanday yo‘l bilan DXX yoki Milliy gvardiyaga uzatilishi aniq belgilanmagan. FVV tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etadi, lekin IIV o‘z funksiyalarini qaysi paytda FVVga topshirishi va teskarisi - bu amaliy unsur huquqiy tartibga solinmay qolgan.

O‘tkazilgan tahlil asosida ushbu tadqiqot doirasida «Jamoat xavfsizligini ta’minlashda javobgarlikni biriktirish modeli» taklif etiladi. Bu model Yu.A.Tixomirovning vakolat nazariyasi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, har bir aniq vaziyatda javobgar subyektni uchta koordinatani bir vaqtning o‘zida hisobga olish orqali belgilash imkonini beradi:

1) **X o‘qi (SOHA)** - jamoat tartibi, yo‘l harakati xavfsizligi, favqulodda vaziyatlar, terrorizm, kibertahdidlar va h.k.;

2) **Y o‘qi (HUDUD)** - respublika → viloyat → tuman → mahalla;

3) **Z o‘qi (YO‘NALISH)** - profilaktika → monitoring → reaksiya → oqibatlarni bartaraf etish.

Uch o'qning kesishmasida har bir konkret vaziyat uchun asosiy javobgar sub'ekt aniqlanadi. Masalan, "mahalla darajasida yo'l harakati profilaktikasi" (soha – yo'l harakati; hudud - mahalla; yo'nalish - profilaktika) → asosiy javobgar – tuman IIB YHX bo'limi inspektori, qo'shimcha -mas'ul – profilaktika inspektori.

Boshqa misol – "tuman darajasida terrorizmga qarshi reaksiya" (soha - terrorizm; hudud - tuman; yo'nalish - reaksiya) → asosiy javobgar - DXX hududiy bo'linmasi, yordamchi mas'ullar - IIV va Milliy gvardiya. Ushbu model B.P.Kondrashov hamda M.Sh. Kutlimuratovning yondashuvlari bilan uyg'unlikda tomonidan ishlab chiqilgan[12].

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda javobgarlikni biriktirish modeli asosida o'tkazilgan tahlil O'zbekistonda jamoat xavfsizligi tizimida quyidagi tizimli muammolarni oshkor etadi:

Birinchidan - funksional takrorlanish muammosi. Tahlil ko'rsatadiki, o'nta asosiy sohaning kamida yettitasida subyektlar o'rtasida vakolatlar takrorlanishi mavjud. IIV-Milliy gvardiya (jamoat tartibi), IIV-DXX (terrorizm), IIV-Mahallalar uyushmasi (ijtimoiy profilaktika), IIV-Sog'liqni saqlash vazirligi (alkogolizm, giyohvandlik, hushyorxonalar), FVV-IIV (favqulodda vaziyatlar) kabilar dublikatsiya ko'rinishlarining eng yorqin misollaridir.

Ikkinchidan – "chegaraviy bo'shliqlar" muammosi. Bunday vaziyat subyektlar o'rtasidagi sifat chegarasida hech kimning javobgarligi mavjud emasligi holatini ifodalaydi. Masalan: kiberterrorizm (DXX, IIV yoki Raqamli texnologiyalar vazirligi), migrantlar orasidagi huquqbuzarliklar (IIV yoki Migratsiya Agentligi), diniy ekstremistlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi (DXX, Mahallalar uyushmasi yoki Din ishlari qo'mitasi). Shu muammo B.Qadamovich va A.Xasanovning tadqiqotida ham aniqlanib qayd etilgan[13].

Uchinchidan - muvofiqlashtiruvchi subyektning yo'qligi. Konsepsiyaga ko'ra Vazirlar Mahkamasi strategik muvofiqlashtiruvchi, Bosh prokuratura esa nazoratchi-muvofiqlashtiruvchi vazifani o'taydi. Biroq amaliyotda ushbu funksiyalar birinchi navbatda yuqori darajadagi siyosiy-huquqiy muvofiqlashtirishga qaratilgan. Ishni tashkillashtirish va nazorat qilish darajasidagi kundalik muvofiqlashtirish uchun doimiy faoliyat yurituvchi maxsus organ mavjud emas.

To'rtinchidan - huquqiy-normativ parokandalik. Har bir subyektning vakolati o'z maxsus qonunida hamda idoraviy hujjatida belgilangan - IIV to'g'risidagi qonun (O'RQ-407), Milliy gvardiya to'g'risidagi qonun (O'RQ-647), DXX to'g'risidagi qonun (O'RQ-466), Prokuratura to'g'risidagi qonun (O'RQ-714), FV to'g'risidagi qonun (O'RQ-764) va boshqalar [14]. Ushbu hujjatlar o'rtasida hammasini birlashtiruvchi normativ-huquqiy xujjat mavjud emas.

Beshinchidan - ishtirok etuvchi subyektlarning rolidagi muammolar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-27-son Farmoni [15] bilan tasdiqlangan Konsepsiya"ning 18-bandi NNTlar va fuqarolarni jamoat xavfsizligi ta'minlashga qo'shilishini ta'kidlaydi, biroq ularning huquqiy maqomi, javobgarlik chegarasi va huquqiy kafolatlari amaliy ijro mexanizmlariga joriy qilinmagan. N. Kuldashv ham ushbu muammoni qayd etib, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining huquqiy bo'shliqlari mavjudligini ta'kidlaydi [16].

Oltinchisi - statistik ma'lumotlar asosida javobgarlik taqsimotidagi "chegaraviy bo'shliqlarning" baholanishi. IIVning 2024-yilgi rasmiy hisobotlariga ko'ra, mamlakatda sodir etilgan jinoyatlarning taqsimoti subyektlar o'rtasidagi vakolatlar chegarasidagi muammolarni yaqqol ko'rsatadi.

4-jadval. Jinoyat toifalari va javobgarlik taqsimotidagi muammolarning o'zaro bog'liqligi

Jinoyat toifasi	2024-yil taxminiy ulushi	Javobgarlik muammosi
Kiberjinoyatlar	42%	DXX-ATKRV-IIV vakolatlarining chegaralari noaniqligi

Jinoyat toifasi	2024-yil taxminiy ulushi	Javobgarlik muammosi
Yoʻl-transport hodisalari	18%	IIV-Transport vazirligi-hokimliklar oʻrtasidagi muvofiqlashtirish
Oilaviy zoʻravonlik	12%	IIV-Mahallalar uyushmasi-Sogʻliqni saqlash vazirligi
Narkotik moddalar bilan bogʻliq	8%	IIV-Bojxona-Sogʻliqni saqlash oʻrtasidagi dublikatsiya
Ekstremizm va terrorizm	< 1%	DXX-IIV-Milliy gvardiya uchligidagi aniq tartib

Maʼlumotlardan koʻrinadiki, jinoyatchilikning 80 foizdan ortiq qismi (kiberxavfsizlik, yoʻl harakati, oilaviy zoʻravonlik, narkomaniya) ayni shu sohalarga toʻgʻri keladiki, ular hududida bir vaqtning oʻzida 2–3 ta subyektning vakolati bor [17]. Bu hol javobgarlik chegarasi muammosining deklarativ emas, real amaliy muammo ekanligini tasdiqlaydi. Xususan, 2024-yilgi maʼlumotlarga koʻra, mahallalarning 50%ga yaqinida jinoyat sodir etilmagan [18], bu - hududiy javobgarlikni aniq biriktirish samaradorligining isbotidir. Qolgan mahallalarda esa “mahalla yettiligi”ning vakolatlari sustligi sababli muammolar saqlanib qolmoqda.

Muammolarni hal etish uchun xalqaro tajriba misoliga murojaat etish lozim. Masalan, Germaniyada har bir yer (Land) darajasida “Jamoat xavfsizligi boʻyicha vazifalari” maxsus qonun (Sicherheitsaufgabenverteilungsgesetz) bilan belgilangan. AQShda “Memoranda of Understanding” (MOU) shaklida federal, shtat va mahalliy organlar oʻrtasidagi aniq vakolat taqsimoti amalga oshiriladi. Singapurda esa “Lead Agency” tamoyili qoʻllanilib, har bir konkret vaziyat uchun yagona yetakchi organ aniq belgilanadi, qolganlari esa uning yordamchi strukturasi hisoblanadi.

Oʻtkazilgan tahlil natijasi oʻlaroq, javobgarlikni aniq biriktirish muammolarini hal etishning quyidagi tizimli takliflari ilgari suriladi:

birinchidan, “Jamoat xavfsizligini taʼminlash subyektlari vakolatlari modeli toʻgʻrisida”gi Nizomni ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlash. Ushbu hujjat yuqorida taklif etilgan model asosida har bir soha-hudud-yoʻnalish kesimida yakka yoki asosiy javobgar subyektini aniq belgilab berishi lozim;

ikkinchidan, “Yetakchi organ” prinsipini huquqiy mustahkamlash, bunda har bir konkret vaziyat uchun yagona yetakchi subyekt belgilanishi, qolganlari uning yordamchi tuzilmasi sifatida faoliyat yuritishi lozim;

uchinchidan, Konsepsiya loyihasida koʻzda tutilgan “Jamoat xavfsizligi boʻyicha Milliy Kengash”ni shakllantirish. Ushbu organ doimiy faoliyat yuritib, subyektlar oʻrtasidagi kundalik muvofiqlashtirishni amalga oshiradi;

toʻrtinchidan, subyektlar oʻrtasidagi hamkorlikni rasmiylashtirish uchun “Idoralararo memorandumlar” tizimini joriy etish. Har bir memorandum aniq soha boʻyicha birgalikdagi harakat qoidalarini, javobgarlik chegaralarini va munozarali holatlarni hal etish tartibini belgilaydi;

beshinchidan, “mahalla yettiligi” formatidagi vakolatlarni Vazirlar Mahkamasining alohida Qarori bilan detallariga ajratib belgilash. Hozirgi VMQ-754 umumiy tamoyillarni belgilaydi, lekin har bir ishtirokchi (mahalla raisi, profilaktika inspektori, yoshlar yetakchisi va h.k.) uchun funksional detallar aniq emas;

oltinchidan, ishtirok etuvchi subyektlar (NNTlar, fuqarolik jamiyati, xususiy sektor) uchun javobgarlik kafolatlari va huquqiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy koʻrinishlarda ragʻbatlantirish tizimini yaratish;

yettinchidan, KPI asosli baholash tizimini barcha subyektlarga tatbiq etish. Shaxsiy va idoraviy javobgarlik miqdoriy mezonlar orqali oʻlchanganda, funksional dublikatsiya va chegaraviy boʻshliqlar avtomatik ravishda minimallasadi.

Xulosa tarzida aytish mumkinki, jamoat xavfsizligi sub'ektlari o'rtasida javobgarlikni aniq birlashtirish - bu nafaqat tashkiliy-texnik masala, balki tizimli huquqiy islohotni talab etadigan yirik vazifadir. Bunday yondashuv (soha × hudud × yo'nalish), "Yetakchi organ" prinsipi, idoralararo memorandumlar tizimi hamda KPI-asosli baholash har bir elementi alohida va birlikda tizimning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu takliflar mamlakatimizning "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uzviy bog'lanadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Тихомиров Ю.А. Теория компетенции. – М.: Юстицинформ, 2001. – С. 55–87 (Tikhomirov Yu.A. Theory of competence. – M.: Yustitsinform, 2001. – P. 55–87).
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги «Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиqlаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-27-сон Фармони, 5-банд // Lex.uz.
(Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-27 dated November 29, 2021 "On approval of the Concept of Public Security of the Republic of Uzbekistan and measures for its implementation", paragraph 5// Lex.uz.)
3. Атажанов Ў.М. Жамоат хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги қонун ҳужжатларини такомиллаштириш масалалари: юрид. фан. доктори ... дис. автореф. – Т.: ТДЮУ, 2020. – Б. 22.
(Atajanov O'.M. Issues of improving legislation in the field of public safety: juridical. science. Dr. ... dis. autoref. - T.: TDUU, 2020. - B. 22.)
4. Ўзбекистон Республикасининг 2016 йил 16 сентябрдаги «Ички ишлар органлари тўғрисида»ги ЎРҚ-407-сонли Қонуни, 9-модда // Lex.uz.
(Law of the Republic of Uzbekistan No. ZURQ-407 "On Internal Affairs Bodies" dated September 16, 2016, Article 9 // Lex.uz.)
5. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 18 ноябрдаги «Миллий гвардия тўғрисида»ги ЎРҚ-647-сонли Қонуни, 3-модда // Lex.uz.
(Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-647 dated November 18, 2020, "On the National Guard," Article 3 // Lex.uz.)
6. Мухаммадинов М.Ш. Жамоат тартибига қарши ҳуқуқбузарликларнинг профилактикасида ички ишлар органлари ва Миллий гвардиянинг ҳамкорлиги // Journal of New Century Innovations. – 2025. – Vol. 91, Iss. 2. – Б. 183.
(Mukhammadinov M.Sh. Cooperation between internal affairs bodies and the National Guard in the prevention of offenses against public order // Journal of New Century Innovations. – 2025. – Vol. 91, Iss. 2. – P. 183.)
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 1 декабрдаги "Жамоат тартибини сақлаш, жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасидаги Ҳукумат қарорларини тизимлаштириш тўғрисида"ги 754-сон қарори // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 02.12.2025 й., 09/25/754/1119-сон; Lex.uz.
(Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 1, 2025 No. 754 "On systematization of government decisions in the field of maintaining public order, ensuring public safety and preventing crimes" // National Database of Legislative Information, 02.12.2025, No. 09/25/754/1119; Lex.uz.)
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 январдаги ПҚ-1-сон Қарори // Lex.uz.
(Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PP-1 dated January 3, 2025 // Lex.uz.)
9. Ниматов Ш.Н. ва б. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасида КРІ асосида баҳолаш: субъектлар фаолиятининг интеграцияси ва самарадорлиги // Modern Education and Development. – 2025. – Vol. 37, № 2. – Б. 214–225.

- (Nimatov Sh.N. et al. KPI-based assessment in crime prevention: integration and effectiveness of the activities of involved entities // *Modern Education and Development*. – 2025. – Vol. 37, No. 2. – P. 214–225.)
10. Исмаилов И., Зиёдуллаев М.З. Ички ишлар органлари таянч пунктларида профилактика инспекторларининг фаолияти ва ҳамкорлигини ташкил этиш. – Т.: ИИБ Академияси, 2017. – Б. 120.
- (Ismailov I., Ziyodullaev M.Z. Organization of activities and cooperation of prevention inspectors at the base points of internal affairs bodies. - Т.: MIA Academy, 2017. - B. 120.)
11. Ҳақимов С.Б. Ички ишлар органлари бошқарув тизимини такомиллаштиришнинг асосий йўналишлари // *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*. – 2024. – № 4 (3). – Б. 59–68.
- (Hakimov S.B. Key directions for improving the management system of internal affairs bodies // *Online Scientific Journal of Sustainability and Leading Research*. – 2024. – No. 4 (3). – P. 59–68.)
12. Кутлимуратов М.Ш. Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлашдаги ўрни ва вазифалари: юрид. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дис. – Т., 2022. – Б. 32.
- (Kutlimuratov M.Sh. The Role and Tasks of Internal Affairs Bodies in Ensuring Public Safety: Dissertation for the Degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Law. – Tashkent, 2022. – P. 32.)
13. Қадамович Б., Хасанов А. Жамоат хавфсизлиги департаментининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тизимини такомиллаштириш йўналишлари // *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research*. – 2022. – Vol. 2, Iss. 2. – Б. 509–524.
- (Kadamovich B., Khasanov A. Directions for improving the crime prevention system of the Public Security Department // *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research*. – 2022. – Vol. 2, Iss. 2. – P. 509–524.)
14. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 20 апрелдаги «Аҳолини ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида»ги ЎРҚ-764-сонли Қонуни // *Lex.uz*.
- (Law of the Republic of Uzbekistan No. ZRU-764 dated April 20, 2022, "On the Protection of the Population and Territories from Natural and Man-made Emergencies" // *Lex.uz*.)
15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон; 16.01.2024 й., 06/24/10/0031-сон; 10.06.2026 й., 06/26/109/0580-сон)
- (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated November 29, 2021 No. PF-27 “On approval of the Concept of Public Security of the Republic of Uzbekistan and measures for its implementation” // *National Database of Legislative Information*, 01.12.2021, No. 06/21/27/1116; 16.01.2024, No. 06/24/10/0031; 10.06.2026, No. 06/26/109/0580)
16. Кулдашев Н. Ўзбекистонда жамоат хавфсизлиги соҳасида давлат-хусусий шерикликни ташкил этиш масалалари // *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies*. – 2022. – Vol. 2, Iss. 3. – Б. 137.
- (Kuldashev N. Issues of organizing public-private partnerships in the sphere of public safety in Uzbekistan // *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies*. – 2022. – Vol. 2, Iss. 3. – P. 137.)
17. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги расмий ҳисоботи. 2024 йил статистика // *iiv.uz*.
- (Official report of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. 2024 statistics // *iiv.uz*.)
18. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги расмий ҳисоботи. Маҳаллалар бўйича жиноятчилик кўрсаткичлари – 2024 // *iiv.uz*.
- (Official report of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. Crime statistics by mahalla – 2024 // *iiv.uz*.)

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.